

Korxonalar va tashkilotlar

(2019-yil 1-may holatiga)

2019-yilning yanvar-aprel oylarida Farg'ona viloyatida 3668 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1980 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 5642 ta (20,0 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 33046 tani tashkil etgan.












Viloyatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
 Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1638	1622	133
 Sanoat	7077	7024	865
 Qurilish	2585	2554	224
 Savdo	8126	8018	1757
 Tashish va saqlash	1323	1310	125
 Yashash va ovqatlanish bo'vicha xizmatlar	1596	1582	247
 Axborot va aloqa	999	984	32
 Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	746	732	33
 Boshqa turlari	8956	8772	252



Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.

2019-yilning 1-may holatiga 33046 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 5,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 21,4 % sanoatda, 7,8 % qurilishda, 24,6 % savdoda, 4,0 % tashish va saqlash, 4,8 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,0 % axborot va aloqa, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 27,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Farg'ona shahri (5974 ta), Qo'qon shahri (4456 ta), Marg'ilon shahri (3267 ta) va Uchko'prik tumani (1745 ta) shahar, tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha So'x tumani (774 ta), Furqat tumani (783 ta) hamda Yozyovon tumani (709 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalarning yillar kesimida soni, *mingda*.





Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **32598** tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 5654 ta (20,1 %) ga o'sgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 5,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 21,5 % sanoat, 7,8 % qurilish, 24,6 % savdo, 4,0 % tashish va saqlash, 4,9 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,0 % axborot va aloqa, 2,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 26,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar ulushi, %


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Farg'ona shahri (5863 ta), Qo'qon shahri (4402 ta), Marg'ilon shahri (3254 ta), Uchko'prik tumani (1707 ta) va Dang'ara tumani (1535 ta) shahar, tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha So'x tumani (774 ta), Furqat tumani (777 ta) hamda Yozyovon (707 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda

01.05.2017 y.

• 24,7 ming

01.05.2018 y.

• 26,9 ming

01.05.2019 y.


• 32,6 ming



Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar.

2019-yil 1-may holatiga 3668 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2018 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2.2 martaga ko'paygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Farg'ona (548 ta), Qo'qon (408 ta), Marg'ilon (357 ta) shaharlarida, Oltiariq (218 ta), Quva (254 ta) va O'zbekiston (186 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam So'x (51 ta) hamda Yozyovon (69 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (865 ta), savdoda (1757 ta), qurilishda (224 ta), tashish va saqlashda (125 ta), yashash va

ovqatlanish xizmatlarida (247 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (133 ta), axborot va aloqada (32 ta), va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (33 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.05.2017 y.		01.05.2018 y.		01.05.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
Viloyat bo'yicha jami	1668	100,0	1688	100,0	3668	100,0
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	158	9,5	98	5,8	133	3,6
Sanoat	547	32,8	447	26,5	865	23,6
Qurilish	112	6,7	154	9,1	224	6,1
Savdo	422	25,3	315	18,7	1757	47,9
Tashish va saqlash	81	4,9	65	3,9	125	3,4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	104	6,2	76	4,5	247	6,7
Axborot va aloqa	55	3,3	41	2,4	32	0,9
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	30	1,8	51	3,0	33	0,9
Boshqa turlari	159	9,5	441	26,1	252	6,9

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni






TIJORAT KORXONALARI.

2019-yil 1-may holatiga 27143 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 9653 ta, oilaviy korxonalar – 3329 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlari – 13472 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 54 tani va boshqalar 635 tani tashkil etadi.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019-yil 1-may holatiga ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 329 tani tashkil etadi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 108 taga yoki 48,0 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 227 tasi qo'shma korxonalar, 93 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan korxonalaridan 236 tasi qo'shma korxonalar, 93 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Farg'ona 110 ta (33,4 %), Qo'qon 46 ta (14,0 %), Marg'ilon 21 ta (6,4%), Quvasoy 19 ta (5,8 %) shaharlarida, Farg'ona tumanida 18 ta (5,5 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar So'x tumani 2 ta (0,6 %), Furqat tumani 3 ta (0,9 %), Qo'shtepa tumani 4 ta (1,2 %), Bag'dod tumani 8 ta (2,4 %), Buvayda tumani 6 ta (1,8 %) va Yozyovon tumani 3 ta (0,9 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2019 yil 1 may holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 193 ta (58,7 %), savdoda 57 ta (17,3 %), boshqa turlarida esa 20 ta (6,1 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa axborot va aloqada 4 ta (1,2 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 19 ta (5,8 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar

ko'rsatishda 7 ta (2,1 %), qurilishda 7 ta (2,1 %), tashish va saqlashda 7 ta (2,1 %) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 15 ta (4,6%) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019-yilning yanvar-aprel oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 47 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 27 taga ko'paygan yoki 2.4 martaga oshgan.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi - 3 ta, Rossiya Federatsiyasi - 8 ta, J.Koreya Respublikasi - 6 ta, Qirg'iziston Respublikasi - 1 ta, Turkiya Respublikasi - 1 ta, Germaniya-1, Latviya – 1, Buyuk Britaniya – 1, Ozarbayjon -1, Armaniston – 1, Amerika Qo'shma shtatlari – 1, Shvetsiya qirolligi - 1 tadan va yana bir qator boshqa davlatlar bilan hamkorlikda yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek bir nechta davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyat yurgazishga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi ulushi, %



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 21 ta, savdoda 9 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 9 ta, qurilishda 1 ta va boshqa korxonalarda 7 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, o'sish dinamikasi

	2018-yil yanvar-aprel		2019-yil yanvar-aprel	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan	Jami	Umumiy soniga nisbatan
		%		%
Jami	20	100	47	100
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi			9	19,1
Sanoat	13	65	21	44,7
Qurilish	1	5	1	2,1
Savdo	6	30	9	19,1
Tashish va saqlash			3	6,4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar			3	6,4
Axborot va aloqa				
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish				
Boshqa turlari			1	2,1




Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni. (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-may holatiga viloyatda ro'yxatdan o'tgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 27,0 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-may holatiga qaraganda 34,4 % ga oshgan. Ro'yxatdan o'tgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4922 tasi (18,3%) Farg'ona, 3860 tasi (14,3 %) Qo'qon, 2918 tasi (10,8 %) Marg'ilon shaharlariga, 1481 tasi (5,5 %) Uchko'priq va 1307 tasi (4,8 %) Dang'ara tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ro'yxatdan o'tgan jami 26966 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 8086 tasi (30,0%) - savdoda, 7028 tasi (26,1%) - sanoatda, 2567 tasi (9,5 %) - qurilishda, 1580 tasi (5,9 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1588 tasi (5,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1307 tasi (4,8 %) - tashish va saqlashda, 997 tasi (3,7 %) - axborot va aloqa sohasida, 553 tasi (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 3260 tasi (12,1 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-aprel oyida 3558 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2018-yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,5 martaga ko'paygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Farg'ona (524 ta), Qo'qon (399 ta), Marg'ilon (353 ta) shaharlarida, Oltiariq (211 ta) va Buvayda (177 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam So'x (49 ta), Furqat (81 ta) hamda Yozyovon (65 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (1756 ta), sanoatda (865 ta), boshqa turdagi xizmatlar (158 ta), qurilishda (222 ta), tashish va saqlashda (125 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (120 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (247 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (32 ta), hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (33 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Oilaviy korxonalar soni




Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-may holatiga 3329 tani tashkil etib, ulardan 3296 tasi yoki 99,0 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 39,1 %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat olib borayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 45,8 % yoki 1510 tasi sanoat, 13,6 % yoki 449 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 19,1 % yoki 629 tasi savdo, 7,9 % yoki 260 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 2,1 % yoki 70 tasi tashish va saqlash, 0,8 % yoki 28 tasi axborot va aloqa, 0,9 % yoki 31 tasi qurilish, 0,8 % yoki 25 tasi sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish hamda 8,9 % yoki 294 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari 1-may 2019-yil kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.